

## MEDIAMATN TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY QISMLARI

*Ibrohimova Aziza Tohirovna*

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar*

*Universiteti Bosma OAV jurnalistikasi yo‘nalishi*

*4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** “Ma’lumki, jahon tilshunosligida matnga dastlab asosan semantik va sintaktik nuqtai nazardan yondashilgan. Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan matnni lingvokulturologik, pragmatik, sosiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Matnga faqat til tizimi unsurlarining nutqqa ko‘chirilishi jarayoni mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli, o‘zida muayyan intellekt egasining bilimlarini, lisoniy tafakkurini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi”<sup>1</sup>. Demak, inson ongi va tafakkuri ulkan kashfiyotlar, yangi ajablanarli tadqiqotlar bajarayotgan hozirgi davrda bu tushunchaga ham zamonaviy yondashuvni talab etmoqda. Chunki fikrning yozma ifodasi matnda aks etadi.

**Kalit so‘zlar:** Kommunikativ rivojlanish, tadqiqot, global tarmoq.

Kommunikativ rivojlanish natijasida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida zamonaviy mass-media sohasida aniq, ko‘rinarli o‘zgarishlar yuz berdi. Unda sohaga oid yangi tushunchalar omma e‘tiboriga tusha boshladi. Qiyosan o‘rganilganda, bundan to‘rt yil avval har bir amerikalik internetda kuniga 7,4 soat o‘tirib, mediakontent bilan tanishgan bo‘lsa, fillippinliklar bunga 9,6 soat, rossiyaliklar 3,6 soat, yurtimizda 0,6 soat ajratilgan<sup>2</sup>. Har oyda o‘zgarib turgan mazkur raqamlar bugungi kunda muhim axborotni kerak bo‘lmaganidan ajratish, media orqali savodxonlikka ega bo‘lish zaruratini qo‘ydi.

OAVni o‘rganuvchi muhim yo‘nalishlardan biri bu – jurnalist asarlarini matn nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilish hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish XX asrning 70-80-yillarida paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yaratilgan asarlar asosan matbuot matnlarining tahliliga bag‘ishlangan<sup>3</sup>.

Ommaga taqdim etilgan xabar qisqa matnli bo‘lsa-da, jamiyat madaniyatiga ta’sir etmay qolmaydi. Matn haqida so‘z borganda, bugungi kunga kelib Yu.M.Lotmanning bu boradagi nazariyasi alohida diqqat-e‘tiborga loyiq. Olim fikri barcha mutaxassislar tomonidan tan olingan va ma’qullangan. Unga ko‘ra, madaniyat – matnlar to‘plami, yig‘indisi yoxud “murakkab tuzilgan matn” sifatida talqin etiladi. Lotman

<sup>1</sup> Худойберганава Д. Матнинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: “Фан”, 2013.

<sup>2</sup><http://fkr.uz/tag/медиа%20таълим%20муаммолари/>

<sup>3</sup> Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф.док. дисс., 2012. 50-бет.

ta'kidlashicha, matn "axborotni o'stiruvchi mexanizm". Zero, madaniyat makonini to'ldirib xilma-xil matnlar ichida axborot to'plash xususiyatiga ega, ya'ni madaniyat xotirasini (madaniy xotirani) o'zida ham mujassam etadi<sup>4</sup>.

Tadqiqot ishi mavzusi bo'yicha media olami haqida global tarmoqda qidiruv e'lon qilinganda esa qiziqarli holatga duch kelindi.

Global tarmoqdan "media" so'ziga qidiruv berilganda 19 900 000 ta, "mediatekst" so'zida 803 000 ta, "mediata'lim" terminiga 2000 ta havolalar taqdim etilgan bo'lsa, "mediamatn" tushunchasi o'zbek tadqiqotchilari tomonidan hali o'rganilmagani u bilan birorta ham material havola etilmaganidan ma'lum bo'ldi. Mazkur holat bizni ajablantirdi, biroq bu sohaga oid izlanishlar bajarilmagan, degani emas. Bugun mamlakatimizda mediasavodxonlik masalasida qator ishlar amalga oshirilib, global tarmoqning o'zida ham ko'plab materiallar berilmoqda, bu borada ijobiy yoki salbiy tusdagi turli fikrlar ilgari surilmoqda. Bu yurtimizda mediasavodxonlik masalasiga katta ahamiyat berilishini anglatadi.

Demak, mediasavodxonlik bugun o'ta muhim masala ekan, jurnalistikada bu sohaga chuqurroq nazar tashlanishi, jamoatchilikni to'g'ri yo'naltira olish uchun mediamahsulotlarning taqdim etilishi, undagi foydalaniladigan vositalar haqida ham chuqurroq izlanishni taqozo etadi. Bu borada myediamatn tushunchasi o'rganilishi muhim bo'lgan masalalardan hisoblanadi.

Darhaqiqat, an'anaviy OAV bo'lmish matbuot, radio, televideniya tashqari shiddat bilan rivojlanayotgan yagona axborot maydoni, butunjahon o'rgimchak to'ri – Internetning yuzaga kelishi o'ziga xos mediaoqimlar majmuidan iborat virtual makonning yaratilishiga olib keldi. Bularning barchasi so'zning shakllanishi va tarqalishi, uning qo'llanish xususiyatlari bevosita tildagi o'zgarishlarda o'z aksini topmay qolmadi. Nutqdan foydalanish ko'proq ommaviy kommunikatsiya sohasiga to'g'ri kelgani uchun undagi matnlar, ya'ni mediamatnlar tilimizning hozirgi paytdagi mavjudligini ta'minlovchi keng tarqalgan shakllardan biriga aylanib qolganligi barchaga ma'lum<sup>5</sup>.

Internet jurnalistikada bugun har bir yo'nalishga e'tibor qaratilishiga axborot olamidagi keskin o'zgarishlar sabab bo'lmoqda. Soniyalarda xabarning eski ma'lumotga aylanishi hodisasi yohud bir so'zning qidiruvi uchun taqdim etilayotgan o'nlab ma'lumotlar ilovasi kishini chalg'itib, yo'lidan adashtirishi ham hech gap emas. Oqim kuchliligidan uni tartibga solish, me'yorida ushlab turish, kuchli suv to'lqiniga qurilgan to'g'ondek tartibga keltirish ishi esa murakkab jarayonlardandir. Axborotni yo'lga solishda, albatta, birinchi navbatda uning matniga ahamiyat qaratiladi. Tadqiqot mavzusini o'rganishda birinchi galda matn va mediamatn terminlarini izohlash darkor.

<sup>4</sup> Лотман Ю. М. Внутримыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. – М., 1988. – С. 22.

<sup>5</sup>Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф.док. дисс., 2012. 56-бет.

“Matn (tekst) – muayyan axborotni berish, uzatish jarayonidagi belgilarning (til birliklarining, simvollarning) izchilligi, ketma-ket kelishi.”<sup>6</sup> Mazkur ta’rif manbasi tilshunoslik sohasiga tegishli adabiyot sanaladi. Chunki bugungi kunda xorijiy olimlar qatori o‘zbek tilshunosligida ham matn tushunchasi tarixidan tortib, uning hozirgi davrdagi ahamiyati kyeng o‘rganilib kelinmoqda.

Shuningdek, gipermatn tushunchasi ham mavjud. Gipermatn atamasi Ted Nelson tomonidan 1965 yilda an’anaviy kitoblar, filmlar va nutqning chiziqli tuzilishini ifodalovchi hujjatlarni tasvirlash uchun kiritilgan. Gipermedia atamasi unga ma’no jihatidan yaqin, ammo u gipermatnda matnli bo‘lmagan tarkibiy qismlarning mavjudligini ta’kidlaydi, masalan, animatsiya, yozib olingan ovoz va video.

“Ma’lumki, jahon tilshunosligida matnga dastlab asosan semantik va sintaktik nuqtai nazardan yondashilgan. Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan matnni lingvokulturologik, pragmatik, sosiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Matnga faqat til tizimi unsurlarining nutqqa ko‘chirilishi jarayoni mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli, o‘zida muayyan intellekt egasining bilimlarini, lisoniy tafakkurini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi”<sup>7</sup>. Demak, inson ongi va tafakkuri ulkan kashfiyotlar, yangi ajablanarli tadqiqotlar bajarayotgan hozirgi davrda bu tushunchaga ham zamonaviy yondashuvni talab etmoqda. Chunki fikrning yozma ifodasi matnda aks etadi.

Jurnalistika sohasida ham matn so‘zi ko‘p qo‘llanmasa-da, usiz faoliyat olib borib bo‘lmaydi. Albatta, matn bu axborot degani, axborot jurnalistikaning asosiy o‘rganish ob’yektidir.

So‘nggi texnikaviy taraqqiyot barcha sohalarda yangi terminlarning kashf etilishiga sabab bo‘lmoqda. Ulardan biri mediamatn tushunchasidir. Mazkur so‘z bugun mediatilshunoslikning asosiy o‘rganish ob’yekti sifatida qaralsa-da, internet olamining vakili hisoblangan jurnalistlarga ham taalluqli jihatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

“Mediamatn” termini mass-media matni, jurnalist matni, publisistik matn, gazeta matni, telematn, reklama matni, PR-matn, internet matni kabi tushunchalar qatorida ommaviy kommunikatsiyaning bir bo‘lagiga aylanib ulgurdi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, *media* (lotincha “*media*”, “*medium*” – vosita, yo‘sin, usul) ma’nosini anglatib, mediamatn tushunchasi esa biror axborot yetkazuvchi, qoyaga o‘yilgan suratdan boshlab, an’anaviy kitob, san’at asari va eng zamonaviy texnika rivojidadagi vositalarni ham qamrab oladi. Biroq mediamatn tushunchasida ommaviy kommunikatsiyaning matn bilan bog‘liqligi uning asosiy jihatidir.

Olimlar tomonidan ushbu yo‘nalish o‘rganilganda, mediamatn tushunchasi chegarasi haqida ham mulohazalar qayd etiladi. Unga ko‘ra mediamatn ommaviy

<sup>6</sup>Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2013. – Б. 186.

<sup>7</sup> Худойберганава Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: “Фан”, 2013.

kommunikatsiyaning uch yirik yo‘nalishi – jurnalistika, PR va reklama asosida ish yuritadi, degan fikrlar ilgari suriladi. Hozirgi kunda mazkur tushuncha medialingvistika, mediastilistika, mediamadaniyat, mediata’lim atamaları qatorida tilshunoslik, falsafa va pedagogikaning yangi, zamonaviy yo‘nalishlari tarkibida o‘rganilayotgan masalalardan hamdir. Rus olimlaridan T.G.Dobrosklonskoy, N.B.Kirillovov, G.Ya.Solganika, A.V.Fedorova va boshqalar mazkur masalani o‘z tadqiqotlarida qayd etib o‘tgan.

Til nazariyasi yo‘nalishidagi o‘zbek tadqiqotchilaridan D.Teshaboyevaning OAV tili bo‘yicha ilmiy ishida mediamatnlarning madaniyatga bog‘liqlik jihatlari juda keng asoslab berilgan.

Hozirgi paytda OAVni o‘rganishda kompleks yondashuv rivojlantirilmoqda. Bunday o‘quv-ilmiy yo‘nalish nemis tilida Medienwissenschaft, ingliz ilmiy an‘analariga ko‘ra esa, medialinguistic – **medialingvistika** deb nomlanadi. Tilshunoslikdagi ushbu yangi yo‘nalish ostida mediamatnlarni o‘rganuvchi turli sohalar birlashtirildi. Ularning barchasi lisoniy va mediaviy xususiyatlarning dialektik yaxlitligini ifodalaydi va medianutqning uch miqyosida namoyon bo‘ladi: so‘zlardan iborat matn, videoqator yoki grafik tasvir miqyosi, ovoz jo‘rligi miqyosi (ovozli hamohanglik miqyosi).<sup>8</sup>

T. G.Dobrosklonskaya lisoniy va ekstralingvistik omillarni hisobga olgan holda, ommaviy axborot matnlarining barcha komponent va miqyoslari sinchiklab tahlil qilinishi haqida gapirib: “Mediamatnlarni yaratish va tarqatish usullari ularning lisoniy hajm xususiyatlari, funksional-janrli tasniflash, fonologik, sintagmatik va stilistik xususiyatlar, talqin etish xossalari, madaniy-xususiy belgilar, ideologik modellilik, pragmalisoniy qimmatiga bog‘liq” deydi<sup>9</sup>.

Yangi yo‘nalishning metodologik asoslari to‘g‘risida muallif quyidagilarni ta’kidlaydi: “Mediatilshunoslikning metodologik apparati ommaviy axborot matnlarini tadqiq etgan barcha yo‘nalishlarning yutuqlarini birlashtirgan. Bularga diskursiv tahlil, funksional stilistika va **lingvokulturologiya** (lisoniy madaniyat) kabilar kiradi”.<sup>10</sup>

OAV tilini **kulturologik yo‘nalishda** o‘rganish borasida madaniyat sohasiga oid matnlarni tadqiq etish masalalariga katta e’tibor qaratiladi. OAV tilining **madaniy xususiyatlarini matn tushunchasi** bilan bog‘liq holda talqin qilish muhimdir<sup>11</sup>.

Umuman olganda, matn tushunchasi OAV tilini o‘rganishdagi boshqa yo‘nalishlar nuqtai nazaridan ham tadqiq etilgan.

<sup>8</sup>Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф.док. дисс., 2012. – Б. 51.

<sup>9</sup>Добросклонская Т. Г. Вопросы изучения медиа текстов: Опыт исследования современной английской медиа речи. – М.: МАКС Пресс, 2000. – С. 32.

<sup>10</sup>Ўша манба. – Б. 33.

<sup>11</sup>Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф.док. дисс., 2012. – Б. 52.

G.S. Melnikning fikricha, matn madaniyat mahsuli sifatida o'zgarishsiz qotib qolgan hodisa emas, u turli ma'nolarni ifodalash bilan birga (bir ma'noli matnlar), yangi ma'nolarni yaratish, ya'ni kreativ-yaratuvchanlik funksiyasiga ham ega (ko'p ma'noli matnlar). Bunday matnlar umumbashariy miqyosda muhim madaniy qimmatga molik. Olim ularda har qanday o'quvchi o'zi uchun biror yangilikni izlab topa olish mumkinligini ta'kidlaydi<sup>12</sup>.

Mediamatn atamasi jurnalistik matn, PR-matn, publisistik matn, gazeta matni, tele- va radiomatn, reklama matni, internet matni tushunchalari qatoridan joy olib, uning vazifasi jurnalistika, PR va reklama sohasida ko'p kuzatiladi. Mediamatnning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Mediaviylik. Bu mediavositlari yordamida biror axborotning uzatilishi.
2. Ommaviylik. Mediamatnni jamoatchilikni jalb etadigan darajada ko'rsata bilish.
3. Tushunarliklik. Matnga qo'yiladigan asosiy talabga ko'ra u barcha yoshdagi auditoriyaga tushunarli yozilishi kerak.
4. Ochiqlik. Ya'ni bunda berilayotgan ma'lumotlar yashirin ma'noda qo'llanmasligi, mediamatn ifodalayotgan material jamoatchilikka ochiqchasiga ko'rsatilishi ma'nosi anglashiladi.

Jurnalistikaning barcha tarmoqlarida matndan keng foydalaniladi. Bosma OAV turkumi gazeta va jurnallar qog'oz va matnga asoslaniladi. Teleradiodasturlar taqdim etishda ham ssenariy matnda o'z ifodasini topadi. Internet ham tasviriy, audiovizuallikda asosiy o'rinda tursa-da, ularning izohini matnsiz bera olmaydi.

Mediamatn tushunchasi bilan bog'liq xorijiy adabiyotlarda uning tarkibiy qismlariga turlicha yondashuvlar kuzatiladi. N.Qosimovanning sohaga oid adabiyotida esa "multimediaviy jurnalistika — bir mavzuga bag'ishlangan, ammo bir nechta shakllar — foto, video, matn, infografika, interaktivni o'z ichiga olgan mediamahsulotdir", deb ta'riflanadi. Demak, mediamatn matn va biror ko'rinish ma'nosini anglatar ekan, uni rasm, video, audio, grafika va boshqa vositalar ko'magida o'rganamiz. Bir tomondan, matnning mediaviyligi mana shu vositalar bilangina namoyon bo'ladi.

Rasm (foto, surat). Bugun tasviriy vositalar ichida jurnalistik materiallarga rasm qo'yish odatiy tusga aylangan. Xorijiy manbalardan Misr Arab Respublikasining "Al-ahrom" yoki AQSHning "The Times" nashrlarida beriladigan maqolalar axborot uzatayotgan muallif surati bilan chop etiladi. Bu gazetaning o'ziga xosligi. Shu bilan birga, u muallifni auditoriyaga tanishtirish, manbaning ishonarliligini ta'minlash va material uchun javobgarligi bo'lgan insonni ko'rsatish ma'nolarini ifodalaydi. Fotolarning internet tarmog'ida aks etishi masalasi esa alohida katta tadqiqot sifatida yoritishga arziydi. Sababi bugun foto olami media makonida juda katta e'tibor

<sup>12</sup> Мельник Г.С., Тепяшина А.Н. Основы творческой деятельности журналиста. – М.: Питер., 2006. – С. 37.

qaratilayotgan masaladir. Tarmoqda hattoki biror matnni qidiruv tizimiga berishda uning surat bilan bog‘liq qismi alohida ruknda ifodalanadi.

Mediamatnda video vositasining o‘rni ham katta. Media tushunchasi harakatli tasvir ma’nosida ham izohlanadi. Videoko‘rinish esa uning shu ma’nosini to‘ldiradi. Bugun internet olamida video masalasida Youtube videobazasi katta qiziqishda kuzatiladi. U dunyo global tizimidagi jamoatchilik nazarida bo‘lgani bois ham daqiqasiga yangi axborotlarni jamlovchi videoaxborot vositasi bo‘lib xizmat qiladi. U ma’lumotlar videoarxivi sifatida ham baholanadi.

Mediamatnlarda videolarning berilishi deganda, bugun biz yurtdoshlarimiz tomonidan keng kuzatiladigan [www.kun.uz](http://www.kun.uz) hamda xorijiy muhim manbalardan [www.nytimes.com](http://www.nytimes.com) sahifalarini keng kuzatdik. Tahlillar keyingi fasllarda batafsil yoritiladi.

Global tarmoqdan foydalanishda audioma’lumotlar bilan tanishish ham juda qulay yo‘l hisoblanadi. Uning qulayligi insonlarga yo‘lda ham eshitib keta olish imkonini berishidir. Audioaxborot faqat radio orqali eshitiladi, deb yuruvchilar ham bor oramizda. Ular internetdan audioyozuvlar, radioning global tarmoqdagi turi sifatida ommalashganidan xabarlar yo‘q. Bugun mediaviylikda audioyozuvlar ham axborot manbasining ishonchlik jihatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Grafika. Bu termin go‘yoki faqat matematika, informatika sohalariga taalluq bo‘lib tuyuladi. Biroq bugun matn bilan bog‘liq barcha ishlarda uning ahamiyati katta.

Hozirgi paytda zamonaviy ta’lim jarayonlarida ham jurnalistika kabi grafikadan keng foydalaniladi. Bu jurnalistikada infografika deb yuritiladi. Infografika lotincha informatio – bayon qilish, xabar berish; yunon tilidagi γραφικός – yozma, va γράφω – yozayapman so‘zlaridan olingan bo‘lib, ma’lumotlar, bilim va axborotni grafika ko‘rinishda uzatish demakdir. Infografika nafaqat katta hajmdagi axborotni uzatish, balki predmetlar va faktlarning vaqt va makon birligidagi muvofiqligi va farqini ko‘rsatish imkoniga ham ega.<sup>13</sup>

Infografikadan foydalanish ham mediamatnning jalb etarli xususiyatini oshiradi. Unda ma’lumotlar tez anglashiladi hamda qisqa vaqtda matn o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladi.

Mediaviy jurnalistikaning eng afzal jihati bu interaktivlikdir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot esa barchani qiziqtiradi, axborot bilan tanishishda qulay imkoniyat yaratadi.

Umuman olganda, bugungi kunda jurnalistikaga yangi termin sifatida kirib kelgan mediamatn tushunchasi xorijiy olimlarning tadqiqot ishlarida keng yoritilmoqda. Mamlakatimizda esa tilshunoslik yo‘nalishiga oid ayrim ishlarda qisqa tahlillarda namoyon bo‘lmoqda. Mediamatn tushunchasi bilan bog‘liq xorijiy tadqiqotlarda mediamatnlar rasm, video, audio va grafika asosida tayyorlanib, ommada berilayotgan axborotga katta qiziqish uyg‘otmoqda, ularning matnni tez o‘zlashtirilishiga sabab

bo'lmoqda va albatta, interaktivlik xususiyatiga ko'ra, jamoatchilik e'tiborini qozonilishiga ham xizmat qilmoqda. Mazkur masalaga keyingi fasllarda misollar orqali batafsil to'xtalamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: “Фан”, 2013. <sup>1</sup><http://fikir.uz/tag/медиа%20таълим%20муаммолари/>
2. Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф.док. дисс., 2012. 50-бет.